

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



UO'K: 159.9

KITOBOXONLIK MADANIYATI – INSON UMR YO'LLARINI YORITUVCHI SO'NMAS NUR**НЕУГАСИМЫЙ СВЕТ, ОСВЕЩАЮЩИЙ КУЛЬТУРУ ЧТЕНИЯ – ЖИЗНЕННЫЙ ПУТЬ ЧЕЛОВЕКА****THE INEXTINGUISHABLE LIGHT ILLUMINATING THE CULTURE OF READING IS A PERSON'S LIFE PATH****Ismailova Ma'mura Ochilovna** 

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti magistranti

Annotatsiya

Maqolada kitobxonlik ko'nikmalari va madaniyatini oshirish haqida so'z boradi. Qo'llab-quvvatlovchi tushunchalar: o'qish, oila, kitob, o'qish madaniyati Maqolada kitobxonlik mahorati va madaniyatini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

Annotatsiya

В статье рассказывается об улучшении навыков и культуры чтения. Вспомогательные понятия: чтение, семья, книга, культура чтения в статье рассматриваются вопросы развития навыков и культуры чтения.

Abstract

The article talks about improving reading skills and culture. Auxiliary concepts: reading, family, book, reading culture. The article discusses the development of reading skills and culture.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, yoshlar, kitobxonlik, mutolaa, oila, kitob, yoshlar tarbiysi, o'qish madaniyati.

Ключевые слова: Культура чтения, молодежь, чтение, семья, книга, воспитание молодежи, культура чтения.

Key words: Reading culture, youth, reading, reading, family, book, youth education, reading culture.

KIRISH

Bugungi shiddat va tezlik bilan rivojlanib borayotgan bir zamonda kelajagimizning asosiy tayanchi hamda katta avlod vakillarining bor umid hamda ishonchini o'zida mujassam etgan biz bo'lgan yoshlarga ko'rsatilayotgan e'tibor hamda zimmamizga yuklanayotgan vazifa va mas'uliyat yanada katta. Xuddi shu o'rinda har tomonlama bilim olishimiz, ta'lim tarbiya topishimizga dunyoning universal va eng so'ngi innovatsion yangiliklardan xabardor bo'lismiz uchun barcha narsa muhayyo. Shu bilan birga bugungi kunda ajdodlarimiz bir necha ming yillar davomida ulug'lagan va asragan, uning uchun jonlarini ham fido qilishga tayyor bo'lgan, har bir zamon va makon haqida bizga ko'plab ma'lumotlarni berishga va axborot almashinishning tezligi va mukammalligi bo'yicha hech narsa oldiga tusha olmaydigan internet bilan zinhor almashtirmasligimiz lozim. Yosh bolaning qo'lliga kichik, su'ratlarga boy kitobchani tutqazing, u avval rasmlarni tomosha qiladi va o'ziga yoqqan lavhalar atrofini sinchiklab kuzatishi insonga o'zgacha zavq-shavq bag'ishlaydi. Kitobga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq aynan shu davrdan kurtak ota boshlaydi. Biz xohlagan mavzumizdag'i kitoblarni istalgan kitob do'konlaridan topishimiz mumkin. Qanchalar kitoblarni ko'p mutolaa qilgan insonning shunchalik dunyoqarashi va nutqi boy bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda esa, "eng muhimi farzandlarimizda yoshlik chog'idan kitobga mehr qo'yishga o'rgatishimiz kerak. Mustaqil kitoblarni ko'plab o'qishlari esa, ularning erkin fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to'g'ri javob toppish ko'nikmasini shakllantriradi". Inson hayotining eng gullagan davri, qaysidir ma'noda esa juda murakkab davri hisoblangan o'smirlilik va o'spirinlik chog'ida yoshlarimizning dunyoqarashi butunlay o'zgaradi, ulardag'i shijoat va kuch g'ayrat yanada oshadi. Ana shunday bir davrda kichik bir ta'sir

ham ularni yo'ldan butunlay og'dirishi hech gap emas. Ularni bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari, qandaydir kompyuter va internet o'yinlarini emas balki, yosh avlodning ongi dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat manbai bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz bilan band bo'lislari, o'zlariga yoqqan soha bo'yicha o'z bilimlarini boyitishlari, soatlab kutubxonalarda kitoblar mutolaa qilishlari biz va vatanimiz kelajagi uchun foydadan holi bo'lmaydi. Aynan shu yo'naliishda yoshlarmizni kitobga jalb qilish, ularning kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish borasida prezidentimiz tomonidan qabul qilingan qarorlariga muvofiq keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

-yoshlarni tarbiyalashda ta'lif muassasalarini, kutubxonalarini, axborot resurs markazlari rolini oshirish, bu borada badiiy va ilmiy adabiyotlardan keng foydalanish maqsadida respublikamizning barcha kutubxonalari ta'mirlanishi va kitoblar bilan boyitilishi;

-har bir tumanda bittadan barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamонави Kutubxonalarning barpo etilishi;

-maktablar, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey muassasalarida o'quvchilarni istalgan mavzudagi Kitoblarni topishlariga imkon beruvchi kutubxona fondlari bilan ta'minlash shular jumlasidandir

Darhaqiqat, yuqorida aytib o'tganimizdek yoshlarmizning turli yod g'oyalar izidan ergashishlari o'rniga ularni kitobga, ma'naviyat bulog'iqa jalb qilishimiz, bilim olishlari, o'qibizlanishlari uchun to'laqonli imkoniyat mavjud bir paytda ular uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochishga ko'maklashish barchamizning ezgu burchimizdir.

Birgina viloyatimiz miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, kasb-hunar kollejlari hamda turli ta'lif muassasalarida kitobxonlik kechalarining tashkil etilishi, yangi kutubxonalarning o'z ish faoliyatini boshlashi, bir necha o'nlab kitob do'konlarining faoliyat yuritayotgani, eng muhimi ularning kitobxonlar bilan gavjum ekanligi va yoshlarni ularning ko'p qismini tashkil etishi albatta juda quvonarlidir. Shunday ekan mustaqil, har tomonlama keng imkoniyatlatga boy va go'zal yurtimizda biz yoshlarni ko'proq izlanishimiz, o'qib-o'rganishimiz, keying avlod vakillarini ham kitobni sevishga, uni ardoqlashga, uni doim mutolaa qilishga o'rgatib borishimiz, ularning vatanimiz ertalari bo'lislari uchun imkon qadar o'z hissamizni qo'shishimiz lozim.

talari bo'lislari uchun imkon qadar o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. – Bugungi bolalar ertangi kun xalqqa aylanadi, – dedi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. – Yoshlarni kitobga qaytarishimiz kerak. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga, ularning kitob bilan do'st bo'lisliga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Kitob - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, har qanday vaziyatda ham hamroh bo'lguvchi sodiq do'st. Insonning ruhiyama'naviy kamolotini ta'minlashda kitobchalik kuchli qudratga esa vosita yo'qdir. Shu boisdan, azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilmu odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Tarbiyaning barcha mezon va unsurlari, avvalo, oilada shakllantirilganidek, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda ham oilaning o'rni nihoyatda kattadir. Qush uyasida ko'rganini qiladi, degan naqlga tayansak, bu mohiyat yanada dolzarb bosqichga ko'tariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'z farmoyishida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish lozimligiga alohida urg'u bergen. Ho'sh, kitobxonlik madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bular, fikrimizga quyidagilardan iborat: o'zining kasbiy-mutaxassislik hamda badiyma'naviy barkamolligini oshirish uchun kitobni tanlay olish va o'zi uchun zarurini o'qish; kitob ustida ishlash malakasini obdon o'rganib olish va unga chuqur amal qila bilish; kitobni mustaqil o'qiy bilish; o'qigan kitobning asosiy mazmunini talqin qila bilish, uning fusunkor olamiga kira bilish; o'qiganlardan hayotiy xulosalar chiqarish; kitobning kerakli, zarur joylarini yon daftarchaga ko'chirib olish, notanish bo'lgan so'zlarni esda saqlab qolishga intilish; muntazam ravishda o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish; kitob bilan muomalada eng qadrdon do'stingga munosabatda bo'lganday e'tibor bilan qarash; kitobni yaroqsiz holiga keltirmaslik uchun undan to'g'ri foydalana bilish; kitobni shoshilmasdan, o'ylab, diqqat-e'tibor bilan o'qish malakasiga ega bo'lish, kutubxona kartotekalari bilan ishlay bilishni o'rganish; o'qigan kitobni do'stlar bilan o'rtoqlashish, yaxshi kitobni ularga tavsiya qilib, uni boshqalar ham o'qib chiqishiga erishish; har bir yaxshi kitobni ilm qal'asining kaliti deb bilib, uning boqiy umrini ta'minlash.

PEDAGOGIKA

Nazarimizda, mazkur farmoyish O'zbekiston ijtimoiy-madaniy muhitini yanada barqarorlashtirishga, yoshlarmizda kitobxonlik darajasini oshirishga, pirovard natijada xalqimiz turmush tarzini yanada farovon qilishga xizmat qiladi. Shu o'rinda yoshlarmizning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida ularning oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish davrida "O'zbek tili va adabiyoti" fanidan insho yozish bo'yicha qo'shimcha sinovni tashkil etish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Gap shundaki, har yili kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni 550-600 ming atrofidagi yigit-qizlar bitirib, oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirishga harakat qilishi. Yozilishi tavsiya etilayotgan insho esa ularning badiiy asar o'qishga bo'lgan mas'uliyatini, so'zsiz oshiradi.

Ayni paytda, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun farmoyishda belgilangan sotsiologik so'rvonomani o'ta mas'uliyat bilan tashkil etish lozim. Bunday so'rvonoma bir tomonidan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini darajasini aniqlasa, boshqa tomonidan, jamiyat talab etayotgan muammolarni aniqlash, mavzular tanlashga imkon beradi. shuningdek, mutaxassislar, soha xodimlari "Yoshlarga tavsiya etilayotgan 100 ta asar" ro'yxatini tuzish, unda milliy va jahon adabiyotining nodir durdona asarlarini o'qishni tavsiya etish ham muayyan ahamiyatga ega bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Endi bugungi kitoblar, ayniqsa badiiy asarlar xususida ayrim fikrlarni bayon etsak: ma'lumki, kitob umuman, badiiy asar kishilarning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy salohiyatini ma'naviy barkamolligini ta'minlashi lozim. Bunday asarlar, darhaqiqat, yaratilmoqda, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarmiz ularni o'qishdan charchamayapti. Ammo, buguni asarlarning barchasiga ham shunday baho qo'yish mumkin emas. Ayrim asarlar yaxshi niyatda yaratilayotgan bo'lsada, ammo ular "teskari samara" bermoqda. Turli salbiy ko'rinishlar, zo'ravonlik, ur-yiqt, odamlarda "olomon fikrlash" darajasini ko'tarishga urinish, fahsh, illatlarni targ'ib etish kabi holatlar ba'zi asarlarda avj olayotganing guvohi bo'lmoidamiz.

Mutafakkir-allomalarimiz johillikning birinchi belgisi-go'zallikni ko'rmaslikdir, deydilar. Haqiqatdan ham shunday. Atrofimizda shuncha yangiliklar, yangilanishlar, islohatlar sodir bo'lmoida, odamlarimiz tafakkur tarzi o'zgarmoqda. Ana shu ijobjiy holatlarni badiiy jihatdan pishiq asarlar orqali xalqimizga, ayniqsa yoshlarmizga yetkazish juda to'g'ri bo'lar edi.

Madaniyat, san'at, ayniqsa badiiy adabiyotda zamonamiz qahramonini topish, uning obrazini yaratish, nazarimizda, o'ta dolzarb masalalardan biridir. Prezident farmoyishida ko'rsatilgan eng muhim masalalardan biri ham shunda. Ayrimlar zamonamiz qahramonini "ko'rmaydilar". Ammo, shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, bunday qahramonlar biz bilan birga, oramizda, ular har kuni jasorat ko'rsatmoqdalar. Ayb – biz ularni ko'rmaganligimizda. Angren-Pop temir yo'lida Farhodning jasoratini takrorlagan, chegarani mustahkamlashda mardlik ko'rsatgan, yangi texnologiyalar asosida fermerlik harakatining unumdorligini oshirayotgan, turli jahon arenalarida mamlakat bayrog'ini baland ko'tarayotganlar-bular zamonamiz qahramonlari emasmi?

Xalqimiz aynan ana shunday kitoblarni kutmoqda. Ayrim vatandoshlarimiz "hozirgi yoshlarga jiddiy badiiy asarlarni tavsiya etgan bilan, ular bunday kitoblarni o'qimaydilar, chunki zamon o'zgardi", deyishmoqda. To'g'ri, zamon o'zgardi. Ammo bizning o'zbekligimiz o'zgargani yo'q. Shunday paytda, yoshlarmizning kitobxonlik madaniyatini oshirish, ular ma'naviy ehtiyojini shakillantirish uchun nimadir tavsiya etishni ba'zan unutayotganga o'xshaymiz. Yoshlar ma'haviy ehtiyojini shakillantirish uchun ularga ma'noli asarlar tavsiya etishimiz lozim.

XULOSA

Buyuk adabiyot namoyondalari kitobga tafakkurning tolmas qanoti, deb ta'rif bergenlarida, u inson ma'naviy olamini boyitishini nazarda tutganlar. Kitob Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat, odamlarga mehr-oqibat tuyg'ularini kamol toptirishning eng yaxshi vositasi sifatida qadrlanadi. Mamlakatimizda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish yo'nalishida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Zero, "kitob bizni yerdan ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, qalbga yorug'lik baxsh etadigan, oq bilan qora, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashga o'rgatadigan insoniyatning eng noyob kashfiyotidir", deydi davlatimiz rahbari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Абдурахмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. Ўқув кўлланмаси. –Т.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2015.
- Абрамович Г.Л. Введение в литературоведение. -Москва: 1970.

3. Адабиёт назарияси. Икки жилдик. 2- жилд. -Т.: «Фан», 1979.
4. Азизов Д., Усова Г. Теория и практика литературоведческого анализа. -Т.: «РУМЦ». 1992.
5. Асмус В.Ф. Вопросы теории и истории эстетики. -М., 1968.
6. Бадаев А.Ф. Поэтическая графика как категория текста: постановка проблемы // Художественный текст: структура, семантика, прагматика. Екатеринбург, 1997.
7. Барт Р. Семиотика, Поэтика (Избранные работы). –Москва: “Наука”, 1989.
8. Бахтин М.М. К методологии литературоведения // Литературно-теоретические исследования. -Москва: 1975.
9. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -Москва: 1979.
10. БартР. Семиотика, Поэтика (Избранные работы). –Москва: “Художественная литература”, 1991.